



CRITERIA FOR COMPOSING SUBJECT TEST ASSIGNMENTS AND THEIR TYPES

Erkinova Nigora Esanovna

Oriental University,

Associate Professor, Department of Uzbek and Oriental Languages, etc.

nigoraerkinova68@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15691329>

ARTICLE INFO

Received: 12th June 2025

Accepted: 17th June 2025

Online: 18th June 2025

KEYWORDS

Test tasks, criteria, types of tests, educational process, competencies, validity, reliability.

ABSTRACT

The article discusses the key principles and criteria for developing test tasks in academic subjects. Special attention is given to the types of tests, their structure, and alignment with educational domains. Methodological approaches to ensuring the validity and reliability of tests within the educational process are also analyzed.

FANGA OID TEST TOPSHIRIQLARINI TUZISH MEZONLARI VA ULARNING TURLARI

Erkinova Nigora Esanovna

Oriental universiteti, O'zbek va sharq tillari kafedrası dotsent v.b.

nigoraerkinova68@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15691329>

ARTICLE INFO

Received: 12th June 2025

Accepted: 17th June 2025

Online: 18th June 2025

KEYWORDS

Test topshirig'i, mezon, test turi, baholash, ta'limiy domen, kompetensiya, ishonchlilik, haqqoniylik (validlik).

ABSTRACT

Ushbu maqolada fanlar bo'yicha test topshiriqlarini tuzishning asosiy mezonlari, turlari hamda ularni baholashdagi o'rni yoritilgan. Test topshiriqlarining tuzilishi, maqsadga muvofiqligi, bilim va ko'nikmalarni o'lchashdagi ahamiyati hamda ularning ta'limiy domenlar bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, testlarning ishonchliligi va haqqoniyligini ta'minlash bo'yicha metodik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Hozirgi vaqtda Vatanimizda yoshlarning bilim olishiga katta e'tibor berilyapti. Ularning zamonaviy bilim egallashlari, yetuk ma'naviyatli inson bo'lib kamol topishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom etmoqda.

Yurt yuksalishining muhim vazifasi har tomonlama yetuk kadrlarni yetishtirishdan iboratdir. Hech bir mamlakat o'z ma'naviy quvvat va imkoniyatlariga tayanmay, inson tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivoj toptirmay, jamiyatning milliy ruhini uyg'otmay turib, buyuk taraqqiyot darajasiga ko'tarilmagan.

Maktab o'qituvchisining jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish bo'yicha qilinayotgan ishlar o'z samarasini beryapti. Ta'lim tizimida zamonaviy talablar asosida darslar tashkil etish,



o'quvchining tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini o'stirishga mo'ljallangan qiziqarli, rangli materiallar tayyorlash dars jarayonini qiziqarli qilibgina qolmay, o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga ham imkon yaratyapti.


Testologiya (pedagogik o'lchovlar) bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni baholash (o'lchash) uchun ilmiy asoslangan, sifat talablariga javob beradigan o'lchov vositalarini (testlarni) yaratish va qo'llash haqidagi fan sohasi sifatida pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, statistika singari fanlar asosida XX asr boshlarida shakllandi. Hozirgi kunga kelib "klassik test nazariyasi", "zamonaviy test nazariyasi (IRT nazariyasi)" va "umumiylashtirish" (genegalizatsiya) nazariyasi" deb ataladigan bir qancha fundamental nazariyalarni va bu nazariyalarni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan bu soha xorijda shiddat bilan rivojlanmoqda, oliy ta'lim muassasalarida alohida yo'nalish sifatida o'qitilmoqda, nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda, ilmiy darajalar berilmoqda¹.

Har qanday xizmat sifati, shu jumladan, ta'lim, agar uni sifatning o'lchanadigan ko'rsatkichlari orqali ifodalash mumkin bo'lsa, boshqaruv ob'ektiga aylanishi mumkin. Bu ularni nazorat qilish, shuningdek, rejalashtirish, yaxshilashning yagona yo'li hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni uch asosiy komponentdan tashkil topadi:

- ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari (curriculum)
- o'qitish metodikasi va o'qitish materiallari (pedagogy)
- baholash usullari (assessment)

O'quv dasturlari va rejalari ta'lim maqsadlarini belgilaydi.



Ushbu maqsadlarga mos ravishda o'qitish metodikasi va o'quv materiallari tanlanadi. Agar ushbu uch komponent bir- biriga uyg'un bo'lsa, ta'lim tizimi samarali ish olib borayotgan bo'ladi.

Baholash ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi. Baholash o'lchash jarayoni bo'lib, bunda bilim, ko'nikma, kompetensiyalar o'lchanadi.

"Baholash nazariyasi asoslari" nomli kitobda pedagogik o'lchovlar nazariyasining konseptual apparati, ta'limda o'lchov natijalarining ishonchliligi va validligi haqida hamda Pedagogik o'lchovlarning obyektivligi, o'lchov fazosi o'lchami, o'lchovlarning darajasi va shkalalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xulosa, amaliy topshiriqlar va muhokama uchun savollar berilgan.

Pedagogik o'lchovlar ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini o'lchash (aniqlash) usullari va vositalarini ishlab chiqish hamda qo'llaydigan pedagogika sohasi².

Baholash biron-bir domenning test topshiruvchilarda shakllanganlik darajasini o'lchash bo'lib, quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

¹ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 160 b.

² Ko'rsatilgan manba



- bilvosita;
- maxsus yaratilgan topshiriqlar yordamida;
- cheklangan sondagi topshiriqlar yordamida.

Pedagogikada o'lchashning mohiyatini tushunish uchun domen va konstrukt tushunchalarini bilish kerak.

Baholashning asosiy tushunchalari mavjud.

- ✓ **Domen** – bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar majmui.

Masalan, fe'l bo'yicha harakat va holat fe'llari, o'timli va o'timsiz fe'llar, fe'l nisbatlari (aniq, o'zlik, majhul, orttirma, birgalik), orttirma nisbat qo'shimchalarining qo'llanilishi, fe'lning vazifa shakllari, ko'makchi fe'llar, tuzilishiga ko'ra fe'l turlari, fe'lning ma'noviy guruhlar va fe'llarning munosabat shakllari kabi bilimlar o'rgatiladi. O'quvchilarda bu bilimlarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Ushbu mavzular bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yig'indisi domen sifatida qaraladi.

Ta'limning har bir bosqichiga mos domenlar tegishli davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarida aniqlik bilan belgilab qo'yiladi. Mazkur standartlarda har bir fan doirasida o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmui (ya'ni domen) aniq va tizimli ravishda ifodalangan.

- ✓ **Konstrukt** – o'lchanishi lozim bo'lgan xususiyat.

Ta'lim jarayonida o'quvchi biron- bir domenga tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar qay darajada shakllanganligini bilish uchun qaysi bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni o'z ichiga olishini hamda shu domenga xos qaysi konstruktarni (xususiyatlarni) o'lchash kerakligi aniqlab olinadi. Shundan keyin o'quvchining qanday topshiriqlarni bajarishi orqali mazkur konstruktarni kuzatib baho berish mumkin.

Masalan, 9-sinf adabiyot darsida o'quvchining doston haqidagi olgan bilimlarini bilish uchun bu domen qanday konstruktarni o'z ichiga olganligini aniqlash lozim bo'ladi, ya'ni dostonning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, talqin qilish kabi. Shunday qilib, o'quvchiga shu konstruktarni bilish imkonini beruvchi topshiriqlarni bajarish orqali uning mazkur mavzuga tegishli bo'lgan domenni qay darajada egallaganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

PISA tadqiqotlarida kreativ fikrlashni baholash uchun qancha ko'p domenlar qamrab olinsa, konstruktning qamrab olishi shunchalik yaxshi bo'ladi.

- ✓ **"Kreativ ifodalash"** deganda shaxsning ichki dunyosini (kechinmalarini) o'zgalarga yetkazib berish hollari tushuniladi. Ushbu mavzu mazmun sohasi, o'z navbatida, "yozma ifodalash" va "vizual ifodalash" sohalariga (domenlariga) bo'linadi.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash keng mavzudagi mazmun sohalariga e'tibor qaratadi: "kreativ ifodalash" va "bilim yaratish hamda muammoni kreativ hal qilish". Ushbu sohadagi kreativ faollikka o'ziga xoslik (originallik), estetika, xayolot, emotsional mazmun va reaksiya xosdir. Aksincha, "bilim yaratish hamda muammoni kreativ hal qilish" sohasidagi ijodiy faollikka ochiq (yagona to'g'ri javobi bo'lmagan) savol va muammolarni tadqiq etish bilan bog'liq kreativ fikrlashning amaliy ko'rinishlari kiradi. Bu soha, o'z navbatida, "ilmiy muammoni hal qilish" va "ijtimoiy muammoni hal qilish" sohalariga (domenlariga) bo'linadi. Ushbu sohalarda, kreativ faollik afzalroq natijaga vositadir, shuning uchun o'ziga xos, innovatsion, ta'sirli va samarali yechimlarni taklif etish deb ta'riflanishi mumkin. Ushbu to'rt baholash sohalari real hayot va kundalik ijodiy fikrlash mohiyatini aks ettirib, 15 yoshli



o'quvchilar, odatda, mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kreativ fikrlash faoliyatini nisbatan darajada qamrab oladi.

Ular ijodiy fikrlashning maktabdagi barcha ehtimoliy ifodasini qamrab ololmasa ham, kreativ fikrlash konstruktini yetarli darajada qamrab oladi, shuningdek, PISA baholashining turli logistik va texnik cheklovlarini inobatga oladi³.

Test- baholanishi lozim bo'lgan domen va konstrukt haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan topshiriq yoki topshiriqlar yig'indisi. Pedagogik test – muayyan bilim sohalari bo'limlari bo'yicha sinaluvchilarning tayyorgarlik darajasini xolisona aniqlash imkonini beruvchi test topshiriqlari to'plamidir⁴.

Test turlari:

- ✓ normaga mo'ljallangan test
- ✓ mezonga mo'ljallangan test
- ✓ ipsativ test
- ✓ muvaffaqiyat testlari
- ✓ egallash testlari
- ✓ prognostik testlar
- ✓ diagnostik testlar

Test baholanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma hamda kompetensiya haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan har qanday topshiriqlar yoki topshiriqlar yig'indisi sanaladi.

Bu topshiriqlar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- ✓ yopiq test- berilgan variantlardan faqat bittasi tanlanadigan test;
- ✓ ochiq test- javob yozish talab qilanadigan test;
- ✓ amaliy test- bajarib, ko'rsatilishi lozim bo'lgan test.

Test tuzishda baholanishi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikma yoki kompetensiyaga amal qilinishi lozim bo'lgan jihatlar qamrab olinadi. Baholanishi lozim bo'lgan domen (bilim, malaka yoki kompetensiya) haqida xulosa chiqarishga imkon berishi va uni bajarish shart-sharoitlari hamma test topshiruvchilari bilan teng bo'lishi kerak.

<u>Ochiq test topshiriqlarining turlari</u>	<u>Izoh</u>	<u>Misollar</u>
Bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan iborat tashkil topgan ochiq topshiriqlar	Berilgan gap yoki matn tarkibidan tushirib qoldirilgan so'z yoki so'z birikmalarini tiklash	Bilimli ... ning kuchi mingga yetar, bilimsizning kuchi birga yetar. (Maqol) a) qiz b) o'quvchi
Qo'shimchalar tushirib qoldirilgan gapdan iborat tashkil topgan ochiq topshiriqlar	Berilgan gap yoki matn tarkibidan tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni tiklash	Uni ko'rgan boshqa jonot... qo'rqanlaridan butalar orasi... yashirinlash yoki daraxt tepasiga chiqib olishar ekan. a) –lar b) –ga

³ PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2020

⁴ Саттиева А.Р., Алимова Д.М., Бегматова Р.А., Ерматов М.К. Таълим жараёнида педагогик тест топшириқларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш // Давлат тест маркази тўплами. – Тошкент, 2021

1. Qaysi gapdagi ega vazifasidagi soʻz tarkibida ishtirok etgan undoshlarning barchasi jarangli til undoshlari sanaladi? (yopiq test)

- A) Ilm olish oson ish emas, unga har kim chidayvermaydi.
- B) Javohir yoʻlda adashib qolgan bir cholni koʻrib qoldi.
- C) Ustoz koʻrmagan shogird har maqomga yoʻrgʻalar.
- D) Shunda botir oʻgʻlonlar yurt himoyasiga otlanibdilar.

2. Qaysi javobda egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda tovush oʻzgarishi bilan yoziladigan tub soʻzlar qatori berilgan? (yopiq test)

- A) bilak, qovoq, chelak
- B) axloq, tirnoq, pishloq
- C) yurak, buyruq, kerak
- D) sovuq, sana, oʻym⁵

1. Berilgan tasvirlarning qay biridan qoʻshma ot hosil qilish mumkin? (amaliy test)



Javob: _____

2. Odil Yoqubovning avtobiografik asari nomini yozing. (amaliy test)



Javob: _____

Taʼlim jarayonida test biron- bir domenni, shu domen oʻz ichiga olgan konstruktarni oʻlchash uchun qoʻllanilishini koʻrib chiqdik. Taʼlim oluvchining bilim darajasini, unda koʻnikma, malaka, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini bevosita koʻrish imkoni mavjud emas: oʻqituvchi bularni faqat bilvosita (savol-javob, kuzatish, topshiriqlar bajarish orqali) koʻrishi, oʻlchashi mumkin. Bunday oʻlchash natijasida chqarilgan xulosalar asosida biron-bir shaxs yoki tashkilot (masalan, oʻqituvchi, taʼlim muassasasi, ish beruvchi) tomonidan maʼlum bir qarorlar (masalan, diplom berish, yoki bermaslik, oʻqishga yoki ishga qabul qilish yoki qilmaslik v.h.k.) qabul qilinadi. Qabul qilinadigan qarorlar asoslantirilgan boʻlishi uchun test asosida chiqarilgan xulosalar ham valid⁶ (asosli) boʻlishi lozim⁷.

⁵ Ona tili va adabiyot. / Davlat test markazi. – Toshkent: Davlat test markazi nashriyoti, 2019. – 64 b.

⁶ <https://uz.laraform.com/validity-9#menu-1>

⁷ Baholash nazariyasi asoslari. Komil Jalilov



Haqiqiylik tushunchasi olim J.Kelli tomonidan ishlab chiqilgan, agar u sinovni o'lchashni talab qiladigan narsani o'lchasa, u haqiqiy bo'ladi. Masalan, aqlni sinash aqlni o'lchashi kerak, boshqa narsani emas (masalan, xotira). Ichki va tashqi haqiqiylikni farqlash mumkin. Ushbu turdagi amallar tadqiqot tadqiqotlari / protseduralarining haqiqiylikni baholash uchun muhimdir.

Validlik- test sifatini belgilovchi asosiy mezon. Test natijalari asosida xulosalarga kelinadi va ma'lum bir qarorlar qabul qilinadi. Demak, bu xulosalar va qarorlar asosli bo'lishi lozim.

VALIDLIK – (ing. “haqiqiy deb tan olish”, “tasdiqlash”) test natijalarini baholashdagi asosiy mezon. Validlik tushunchasi pragmatik g'oyaning asosiy amali deb biladi, shaxsning psixologik xususiyatlarini tekshira oladi. Ilgari validlik so'zining ma'nosi “testning sifati” tushinilgan bo'lsa, hozirgi paytda “test natijalarini interpretatsiya qilmoq” bo'lib, asosiy tushuncha borligi va test natijalarini qo'llash tushiniladi. Validlik tushunchasi testning sifatini emas, balki testning natijalari bilan o'xshash taraflarini ko'rsatadi.

Amerikalik olim A.Anastazining mulohazalariga qaraganda TEST ning VALIDLIGI – “testni o'lchovchi” va “ o'zgartiruvchi” degan ma'noni beradi. Validlik bizga metodikaning qo'llanishiga yaroqli yoki yaroqsizligini aniqlab beradi. Validlikni nazariy jihatlarini o'rganuvchi eng keng qo'llaniladigan usul bu konvergent validlik hisoblanadi. Boshqa metodikalar bilan taqqoslash diskreminant validlik hisoblanadi. Keyingi validlik bu pragmatik validlik hisoblanadi. Bu metodikaning amaliy jihatdan qanchalik yaroqli ekanligini tekshiradi.

Test topshirig'idan maqsad test topshiruvchini chalg'itish bo'lmasligi kerak. Test topshirig'i chalkash bo'lmasligi, tushunarli, lo'nda, imlo xatolarsiz, sodda va ravon bo'lishi kerak. Tushunarsiz yozilgan test topshiriqlari o'z vazifasini bajarmaydi, ya'ni bilimni bilimsizdan ajratib bermaydi.

Keltirilgan fikrlarni asoslash maqsadida shuni ta'kidlash joizki, turli yo'nalishdagi testlarni ishlab chiqishda, eng avvalo, ularning maqsadini aniq belgilash, test topshiriqlarini umumlashtirish, sinovdan oldin ularni ko'rib chiqish, tasdiqlash hamda test shkalalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Keyingi bosqichda esa testlarni standartlashtirish, me'yoriy ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, shuningdek, validlik darajasini madaniy-mintaqaviy muhitga moslashtirish zarur bo'ladi. Shundan so'nggina testlarni amaliyotga joriy etish va keng jamoatchilik e'tiboriga taqdim etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

References:

1. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 160 b.
2. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi.O'quv qo'llanma. Toshkent – 2020.
3. Саттиева А.Р., Алимова Д.М., Бегматова Р.А., Ерматов М.К. Таълим жараёнида педагогик тест топшириқларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш // Давлат тест маркази тўплами. – Тошкент, 2021.
4. Ona tili va adabiyot. / Davlat test markazi. – Toshkent: Davlat test markazi nashriyoti, 2019. – 64 b.
5. <https://uz.laraform.com/validity-9#menu-1>
6. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 160 b.